

**Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni baholash
Uslubiyoti**

1-bob. Umumiy qoidalar

Institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyati (keyingi o‘rinlarda – Uslubiyot) institutda yuklangan majburiyat va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha talablarni belgilashga hamda institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

Quyidagilar institutdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadi hisoblanadi:

- institut faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiya xavf- xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan institut xodimlari funksiyalari va lavozimlarini belgilash;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish va oldini olish bo‘yicha samarali choralarni ishlab chiqish;
 - institutdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagilarni ishlab chiqilishini ko‘zda tutadi;
 - korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;
 - institutdagi korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi mas’ul xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi va muddatlarini o‘z ichiga olgan dasturlarni ishlab chiqish.

Institutdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki quyidagi holatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi:

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni birlamchi baholash zaruriyati;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik talablarining o‘zgarishi;
- funksiya yoki tartib-taomilning amalga oshirilishiga sezilarli ravishda ta’sir ko‘rsatuvchi institutning ichki hujjatlari o‘zgarishi;
- institut bo`limlarining o‘zgarishi, xavf-xatar funksiyalarni amalga oshirishda o‘ziga xos jihatlar ko‘ringanda yoki yangi funksiyalar kelib chiqqanda;
- institut funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta’sir

ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlarning kelib chiqishi.

Ushbu Uslubiyatda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalilanadi:

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi – institutdagи korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan va institut funksiyalari, tartib-taomillarining umumiy ro‘yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar tasnifi (sxemalar), o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi birlashgan hujjat.

Organ yoki muassasaning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritasi – institutning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuziladigan hamda organ yoki muassasa funksiyalari va tartib-taomillarining umumiy ro‘yxati, tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ehtimoliy korrupsiyaviy xavf-xatar tasnifi (sxemalar), o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari va aniqlangan korrupsiyaviy xatarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan xodimlar lavozimlarini o‘z ichiga oluvchi hujjat;

Korrupsiyaviy xavf-xatar – institut xodimlari yoki ularning manfaatlaridan kelib chiqib uchinchi shaxslar tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy harakatlarining xavf-xatari, jumladan:

o‘ziga xos xavf-xatar – institut faoliyati va amalga oshirilayotgan funksiyalari spesifikasidan kelib chiqadigan hamda, uni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi hisobga olinmagan (ya’ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillari, xavf-xatalarni minimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar va joriy etilgan nazoratlar hisobga olinmagan holda) tarzdagi xavf-xatar;

qoldiq xavf-xatar – institut tomonidan ta’sir choralari qabul qilingandan so‘ng qoluvchi xavf-xatar (ya’ni, amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va tartib-taomillarini, xavf- xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni va joriy etilgan nazoratlarni hisobga olgan holda);

korrupsiyaviy harakatlar – bu pora beruvchi manfaatlarini ko‘zlagan holda xodim tomonidan harakat yoki harakatsizlik uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora, ya’ni pul, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy xarakterga ega xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, undirish, taklif qilish, va’da qilish va berish, pora berish yoki olishda vositachilik qilish, rasmiy jarayonlarni soddalashtirish uchun to‘lovlar qabul qilish,

pora olish va boshqa qonunga xilof maqsadlarda shaxs tomonidan o‘z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanishdir;

korrupsiyaviy huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash – institut tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalarni tahlil qilish, ularning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash, shuningdek funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan tegishli tartib-taomillar uchun o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash faoliyati;

ekspert fikri – biron bir fakt yoki hodisa bo‘yicha xodim, bo‘linmaning subyektiv qarashi yoki fikriga asoslangan qarori;

tartib-taomil (protsedura) – institut funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo‘limlar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan, yohud ma’lum bir funksiyaning ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo‘yicha bir guruhgaga birlashtirish mumkin bo‘lgan harakatlar yig‘indisi;

funksiya – bir nechta tartib-taomilni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan tashkilot tizimining ichki jarayon (faoliyat yo‘nalishlari)laridan biri;

ruxsat beruvchi funksiya – institutda jismoniy va yuridik shaxslarga faoliyatining ayrim turlarini amalga oshirish imkonini beradigan ruxsatnomalar berish;

ro‘yxatdan o‘tish funksiyasi – obyektlarning huquqiy maqomini belgilash, o‘zgartirish yoki tugatish maqsadida institutning hujjatlarni ro‘yxatga olish bilan bog‘liq faoliyati;

korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi – institutda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linma.

Institutdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash rektor topshirig‘i asosida uni o‘tkazish muddatlari ko‘rsatilgan holda amalga oshiriladi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishchi guruhlar tomonidan amalga oshiriladi, ularning tarkibi quyidagilar tomonidan tasdiqlanadi:

- institut uchun – rektor tomonidan;

Bo`limlar uchun – o’quv ishlar bo‘yicha prorektor.

Ishchi guruhlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- institutning korrupsiyaga qarshi kurashish “komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – bo‘lim);
- institut bo`limlari rahbarlari;
- institutning korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasini baholash borasida

yeterli bilim va tajribaga ega bo‘lgan boshqa hodimlari.

Bo‘lim quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullarni jalg qilgan holda institut tizimida xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;
- institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiylazoratni amalga oshiradi;
- institutdagagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar, shuningdek, tashkilot markaziy apparati tarkibiy bo‘limlariga mazkur Uslubiyatda ko‘zda tutilgan tartibga rioya qilish bo‘yicha maslahatlar beradi;
- rektorga xavf-xatarlarni baholash natijalari, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini taqdim etadi;
- institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtiradi va ularni nazorat qiladi;
- zarur hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullardan qo‘srimcha ma’lumot va hujjatlarni so‘rab oladi;
- korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan takliflarni kiritadi;
- ushbu Uslubiyatda ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlar tegishli bo‘limlarga korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni tashkil etish va amalga oshirishda mas’ul bo‘lib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

- institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanishini tashkil qiladi va o‘tkazadi;
- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash doirasida ishchi guruhlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- zarur hollarda bo`lim rahbarlaridan qo‘srimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi;
- institutning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi;
- ushbu Uslubiyatda ko‘zda tutilgan tartibda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarining zaruriy kelishilishini (soglasovanie) ta’minlaydi;
- institutda korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan

- takliflar kiritadi;
- institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;
 - ushbu Uslubiyatda ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash

Institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayoni institut rektorining tegishli buyruqlari asosida amalga oshiriladi.

Rektor buyrug‘ining loyihasi bo‘lim tomonidan tayyorlanadi. Buyruq loyihasida har bir bosqichni amalga oshirish muddatlari ushbu Uslubiyatda nazarda tutilgan tartibda ko‘rsatiladi.

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholashning umumiy muddati 3 oydan oshmasligi lozim.

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- funksiyalarning korruptsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini birlamchi baholash;
- tegishli funksiyalar doirasida institut tizimi xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim tartib-taomillarning korruptsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash.

Korruptsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash, mazkur bobning 2.4.-2.10. bandlarida ko‘rsatilgan tartib va ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda ishchi guruhlar rahbarlari ushbu Uslubiyat 1-ilovasida keltirilgan funksiyalarni tasniflash shakli (keyingi o‘rinlarda - Shakl) bo‘yicha institutning tarkibiy bo‘limlari rahbarlari uchun topshiriq (ko‘rsatma) beradi.

To‘ldirilgan Shakllarni ishchi guruhga taqdim etish muddatlari topshiriqda ko‘rsatilib, bu muddat 10 ish kunidan kam bo‘lmasligi kerak.

Shakllarni to‘ldirish *xls* yoki *doc* elektron formatida amalga oshiriladi. Shakllarga qo‘shimchalar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Institut rahbarlari Shakllarni quyidagi tartibda to‘ldiradi:

- Shakllarga funksiyalar doirasida amalga oshiriladigan funksiya va tartib-taomillar ro‘yxati, shu bilan birga uning ijrosi uchun mas’ul bo‘lganlarni kiritadi;
- o‘z tajribasi va ushbu Uslubiyatning 4-bobida bayon etilgan mezonlar asosida har bir funksiyaning korruptsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini baholaydi;
- o‘z tajribasi va ushbu Uslubiyatning 4-bobida bayon etilgan mezonlar asosida har bir tartib-taomilning o‘ziga xos xavf-xatari darajasini

baholaydi;

- eng ko‘p korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo‘lgan funksiyalarga kiradigan tartib-taomillar uchun¹ quyidagilar to‘g‘risida ma’lumot to‘ldiriladi:
- mazkur tartib-taomil doirasida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan potensial korrupsiyaviy senariy (xavf-xatarlar);
- korrupsiyaviy senariylar (xavf-xatarlar)ni amalga oshirish xavfini kamaytirishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar;
- korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan xodimlar;
- korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari kiritilgan huquqiy-me’yoriy va ichki hujjatlar;
- shuningdek, o‘z tajribasiga tayangan holda va ushbu Uslubiyatning 4-bobida bayon etilgan mezonlar asosida qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholaydi.

Institut rahbarlari tomonidan to‘ldirilgan Shakllar tahlil uchun ishchi guruuhlar tarkibidagi bo‘lim xodimlariga yoki korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha mas’ullarga beriladi. Funksiyalar, tartib-taomillar va ularga berilgan xavf-xatar darajalariga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, bo‘lim xodimlari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar, funksiya, tartib-taomilni bajarish uchun mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlariga izoh berish yoki Shakllarga tuzatish kiritish uchun so‘rov yuboradi. Bunda, so‘rov olingan kundan boshlab 2 ish kunidan oshmagan muddatda javob yuborilishi lozim.

Bo‘lim xodimlari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar o‘z ekspertlik fikriga tayangan holda funksiyalar, tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini to‘g‘irlashi, shuningdek tegishli funksiya, tartib-taomil bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalar tomonidan amalga oshirilgan xavf-xatarlarni baholashga boshqa o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

¹Faqatniga eng ko‘p korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo‘lgan fuknsiyalarga tegishli tartib-taomillar uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash cheklangan resurslar (kadrlarga oid, moddiy-texnikaviy va moliyaviy)dan oqilona foydalanish maqsadida ko‘zdautilgan. Davlat organi tizimida yetarli resurslar mavjud bo‘lsa, qayd etilgan ma’lumot, shuningdek korrupsiyaviy xavf-xatarga eng kam moyil bo‘lgan funksiyalarga tegishli tartib-taomillar uchun ham to‘ldiriladi.

Shakllarning to‘liq to‘ldirilganligi, xavf-xatar darajasini aniqlashda Uslubiyatga rioya qilinishi, turli bo‘linmalar tomonidan to‘ldirilgan shakklardagi nomutanosibliklari va h.k.lar tahlili natijalariga ko‘ra bo‘lim xodimlari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini mazkur Uslubiyatning 3-ilovasida ko‘zda tutilgan shakl asosida to‘ldiradi, shu bilan birga korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqib, ularga kiritadi.

Ishchi guruhlar yig‘ilishi yakunlari bo‘yicha bayonnomalar tuzilib, ularda qabul qilingan qarorlar qayd etiladi. Bayonnomalar ishchi guruhlarning barcha a’zolari tomonidan imzolanadi va bo‘lim xodimlari yoki mas’ul xodimlarda saqlanadi.

Institutning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini tuzish va kelishish muddati tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari tomonidan Shakllarni taqdim etilgan sanadan boshlab 20 ish kunidan oshmasligi lozim.

Savollar va e’tirozlar yuzaga kelgan taqdirda, bo‘lim tomonidan kelib chiqqan e’tirozlar bo‘yicha mas’ul xodimlarga, tegishli bo‘lim rahbarlariga so‘rov yuboradi. So‘rovga javob 2 ish kunidan oshmagan muddatda berilishi lozim.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzish muddati, korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini bo‘limga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi kerak.

Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarning yuqori darjasini bilan ifodalananadigan tartib-taomillar uchun bo‘lim va mas’ul xodimlar ushbu Uslubiyatning 5-ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini ishlab chiqadi.

Institutning yakuniy korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati bo‘lim va mas’ul xodimlar taqdimnomasiga asosan institut rahbarlar tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi bo‘lim taqdimnomasiga asosan rektor tomonidan tasdiqlanadi.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning davriy (har yillik) baholanishi

Institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning davriy baholanishi doimiy ravishda, bir yilda kamida bir marta institut rektorining tegishli buyruqlari asosida o‘tkaziladi.

Rektor buyrug‘i loyihasi bo‘lim tomonidan tayyorlanadi. Buyruq loyihasida majburiy ravishda ushbu Uslubiyatda ko‘zda tutilgan har bir bosqichni bajarish

muddatlari belgilab qo‘yiladi.

Davriy (har yillik) korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanishini bajarish muddati 2 oydan oshmasligi lozim.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning keyingi har beshinchisi (ya’ni, 5 yilda bir marta) ushbu Uslubiyatning 2-bobida ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Rektorning tegishli buyruqlari asosida bo‘lim va mas’ul xodimlar institut bo`limlariga So‘rovnoma yuboradi (ushbu Uslubiyatda 2-ilova). Unda rahbarlar o‘z bo‘limlari funksiya tartib-taomillarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldingi baholanishiga nisbatan qanday o‘zgarishlar bo‘lganini, shu bilan birga quyidagi ma’lumotlarni aks ettirishi lozim:

- institut bo`limlari tomonidan bajariladigan funksiya tartib- taomillarga ta’sir ko‘rsatadigan qonunchilikda qandaydir o‘zgarishlar bo‘lganmi;
- funksiya tartib-taomilini amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatgan, boshqa davlat organlari faoliyati yoki tizimida o‘zgarishlar yoki boshqa tashqi omillar tomonidan qandaydir o‘zgarishlar bo‘lganmi;
- oxirgi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonidan keyin funksiya tartib-taomil tuzilmasida, funksiya/tartib-taomilni tartibga soluvchi ichki - hujjatlarda qandaydir o‘zgarishlar yuz bergenmi;
- oldingi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda ko‘zda tutilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilganmi;
- institutning tarkibiy bo`limlarida funksiyalar tartib-taomillarni bajarish tartibiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa holatlar mavjudmi.

Bo‘lim va mas’ul xodimlar bo`lim rahbarlari tomonidan to‘ldirilgan So‘rovnomalarni yig‘adi, tahlil qiladi va institutning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan o‘zgarishlarni qayd etgan holda o‘zgartirish kiritadi.

So‘rovnomalarni to‘ldirishda savollar va e’tirozlar kelib chiqsa bo‘lim va mas’ul xodimlar tarkibiy bo`limlar rahbarlariga so‘rov yuboradi. So‘rovga javob 2 ish kunidan oshmagan muddatda taqdim etilishi lozim.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga o‘zgartirish kiritish muddati funksiya tartib-taomilni bajarish uchun mas’ul bo‘lgan tarkibiy bo`limlar rahbarlari uchun So‘rovnomalarni taqdim etish uchun belgilangan kundan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi lozim.

O‘zgartirish kiritilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari (ulardagi o‘zgarishlar belgilangan holda) mas’ul xodimlar tomonidan bo‘limga yuboriladi.

Bo‘lim korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzadi va unda avvalgi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga nisbatan o‘zgarishlarni qayd etadi.

Savollar va e’tirozlar kelib chiqqan taqdirda bo‘lim tomonidan mas’ul xodimlarga aniqlangan e’tirozlar bo‘yicha so‘rovlari yuboriladi. So‘rovga javob 2 ish kunidan oshmagan muddatda taqdim etilishi lozim.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzish muddati, korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini bo‘limga taqdim etilgan sanadan boshlab 10 ish kunidan oshmasligi lozim.

Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan tartib-taomillar uchun bo‘lim va mas’ul xodimlar ushbu Uslubiyatning 5-ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini ishlab chiqadi.

Yakuniy korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati, bo‘lim va mas’ul xodimlar taqdimnomasiga ko‘ra, tegishli tarkibiy bo‘lim rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi vazir tomonidan bo‘lim taqdimnomasiga ko‘ra tasdiqlanadi.

4-bob. Institutda amalga oshiriladigan funksiyalar va tartib-taomillarning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash uslubiyati

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma’lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi, jumladan:

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholovchi funksiyalarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va institutning ichki hujjatlari (misol uchun, tarkibiy bo‘limlar, xodimlarning lavozim yo‘riqnomalari to‘g‘risidagi nizomlar va h.k.);
- ichki tekshiruvlar, shu bilan birga xizmat teshiruvlari materiallari;
- ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha monitoring natijalari;
- - odob-ahloq Komissiyasi yig‘ilishlari natijalari;
- manfaatdor tomonlar, davlat xizmatlari, ekspertlar va boshqa manfaatdor shaxslar orasida o‘tkazilgan so‘rov, jumladan ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bo‘yicha institut xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid xabarlar;

- institut faoliyatidagi huquqburzaliklarga oid statistik ma'lumotlar;
- korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallariga kelib tushgan murojaatlar, jumladan “ishonch telefoni”ga, Prezident virtual qabulxonasiga va Bosh vazir murojaatlar qabulxonasiga kelib tushgan murojaatlar;
- institut xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar yoki odob-axloq qoidalariga rioya qilmaslik to‘g‘risida fuqarolik jamiyati institutlari murojaatlari va OAVdagi axborotlar;
- ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan prokuror nazorati doirasidagi, jinoyat ishlariga doir hujjatlar va boshqalar.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida institutning har bir funksiyasi va tartib-taomili bo‘yicha korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishi ehtimoli bo‘yicha tahlil qilish lozim.

Har bir funksiya quyidagi shkala bo‘yicha baholanadi:

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya;
- orrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo‘lgan funksiya.

Funksiya quyidagi hollarda korrupsiyaviy xavf-xatarga ko‘proq moyil hisoblanadi:

- funksiya doirasida tarkibiy bo‘limlar yuridik shaxslar faoliyati yuzasidan tekshiruv va nazorat amalga oshiriladi;
- funksiya doirasida jismoniy va yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zaro aloqaning amalga oshirilishi;
- funksiya doirasida davlat namunasidagi litsenziyalar, sertifikatlar, ruxsatnomalar, har xil xulosalarni (jumladan, ekspert va baholash xulosalarini) berish, qonunchilikda belgilangan harakatlarni kelishish va tasdiqlash (ma’qullah);
- funksiya doirasida institut mulki va byudjet mablag‘larining ajratilishini amalga oshirish yoki institutning byudjet mablag‘lari va mulkini oluvchilarini tanlash;
- funksiya doirasida tovarlar yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmat ko‘rsatishga oid buyurtmalarni joylashtirishni amalga oshirish;
- funksiya doirasida institut tasarrufidagi yer uchastkalari, boshqa ko‘chmas mulk obyektlarini ijaraga berish shartnomalarini tuzish huquqini berish;

- funksiya doirasida subyektiv parametrlarga ko‘ra bir nechta nomzodlar (jismoniy va yuridik shaxslar)ni taqqoslashni amalga oshirish;
- funksiya doirasida moddiy-texnik resurslarni saqlash va taqsimlashni amalga oshirish;
- institutda davlat attestatsiyasini o‘tkazish;
- institutda xodimlarni boshqa lavozimga o‘tkazish, qayta tiklash masalalarida qaror chiqarish, shuningdek davlat attestatsiyasini qaytadan topshirishga ruxsatnoma berish;
- tekshiruvlar bilan tasdiqlangan shikoyatlar yoki mazkur funksiyaga taalluqli korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berish uchun mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali kelgan murojaatlar mavjudligi;
- mazkur funksiyani amalga oshirish doirasida korrupsiya faktlari yoki unda gumon qilishga oid axborotlar, jumladan ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar chop etilishi;
- funksiyani amalga oshiruvchi tarkibiy bo‘lim rahbari vakant joyining mavjudligi yoki tarkibiy bo‘lim rahbarlarining tez-tez almashib turishi;
- huquqni muhofaza qilish, boshqa davlat organlari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va ularning mansabdar shaxslari tomonidan funksiya bilan bog‘liq korrupsiyaviy huquqbazarliklar yuzasidan taqdim etilgan materiallari mavjudligi;
- lavozim majburiyatlarini bajarishda tasdiqlangan manfaatlar to‘qnashuvi faktlari, jumladan favoritizm, nepotizm (qarindosh-urug‘chilik), mahalliychilik, homiylik, urug‘-aymoqchilik faktlarining mavjudligi.

Ushbu Uslubiyatning 4.3.-bandida ko‘zda tutilmagan holatlarda funksiya korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil hisoblanadi.

O‘rganilayotgan funksiya doirasida amalga oshirilayotgan tartib-taomillarning o‘ziga xos xavf-xatarini baholash quyidagi mezonlarga ko‘ra amalga oshiriladi:

- *o‘ziga xos yuqori korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiyalar* doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;
- *o‘ziga xos o‘rta korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo‘lgan funksiyalar* doirasida amalga oshiriladigan tartib-taomillarga beriladi;
- *o‘ziga xos past xavf-xatarlar* ushbu Uslubiyatda ko‘zda tutilmagan va bo‘limning asosli xulosasi asosida istisno tariqasida qo‘llanilishi mumkin. O‘ziga xos past xavf-xatarlar O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha korrupsiyaning umumiy holati yaxshilanishiga qarab, bo‘limning asosli xulosasi asosida ushbu Uslubiyatga kiritilishi mumkin.

Potensial korrupsiyaviy ssenariy (xavf-xatar)lar quyidagilarni amalga oshirish imkoniyatini hisobga olgan holda ifodalanadi:

- xodimlar yoki ularing yaqin qarindoshlari orqali poralarni, shuningdek asossiz, yuqori mukofotlarni olish, xodim o‘z xizmat vakolatlarini vijdonan bajarmayotgani munosabati bilan tovarlarni xarid qilish, turli tashkilotlar yoki shaxslar xizmatidan foydalanganda preferensiylar yoki imtiyozlarga ega bo‘lish;
- davlat xizmatlarini olish va ko‘rsatish paytida sun’iy to‘siqlarni yaratish;
 - belgilangan muddatlarda qaror qabul qilmaslik yoki navbatdan tashqari yoxud ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslarga nisbatan mavjud talablarni aylanib o‘tgan holda tezkorlik bilan qaror qabul qilish;
 - hujjatlar, elektron ma’lumotlar bazalariga ataylab yolg‘on ma’lumotlar kiritish;
 - xizmat vakolatlarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuvi, jumladan favoritizm, nepotizm (qarindosh-urug‘chilik), mahalliychilik, homiylik, urug‘-aymoqchilik holatlari mavjudligi.

Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholash xavf-xatarli hodisani amalga oshishining ehtimoliy ta’siri (mazkur Uslubiyatning 6-ilovasi 6.1-jadvaldagi mezonlarga qarang) va xavf-xatarli hodisa yuzaga kelishi ehtimoli (mazkur Uslubiyatning 6-ilovasi 6.2 jadvalidagi mezonlarga qarang)ni hisobga olgan holda xavf-xatarlar ahamiyati matritsasidan foydalanib amalga oshiriladi (mazkur Uslubiyati 6-ilovasidagi 6.1-rasm).

5-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarning qoldiq darajasini minimallashtirish choralar

Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini minimallashtiruvchi tadbirlar, nazoratlar va harakatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- institut funksiyalari va tartib-taomillarini aniq belgilab berish;
- davlat xizmatlari ko‘rsatish tartib-taomillarini maqbullashtirish, asossiz cheklolar, ortiqcha ma’muriy tartib-taomillarni bartaraf qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini istisno qilish, diskresion vakolatlar sonini kamaytirish, taqdim etilayotgan hujjatlar va qarorlar qabul qilish muddatlarini qisqartirish;
- ma’muriy tartib-taomillar va boshqa harakatlar doirasida arizachilar va instituttizimining xodimlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani maksimal darajada cheklash, elektron ma’lumot almashish tizimini joriy etish;

- xizmat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun axborot texnologiyalarini qo'llash sohalarini ko'paytirish, ularni qayd etish uchun videokuzatuva va audio-yozuv vositalaridan foydalanish;
- rasmiy veb-sayt va boshqa OAVlarda davlat xaridlariga doir ma'lumotlarni joylashtirish orqali keng ommaga tarqatish;
- fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va OAV bilan o'zaro aloqa shakllarini kengaytirish va birinchi navbatda davlat organidagi korrupsiya holatlari to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilishni rag'batlantirish;
- institut bo`limlar bilan tushuntirish tadbirlarni va profilaktik suhbatlarni o'tkazish, "ishonch telefoni" va aloqa kanallari targ'ibotini amalga oshirish;
- institut xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitish, bilimini oshirish;
- nomzodlarni tanlab olish mexanizmini takomillashtirish, aniq mezonlarni belgilash va shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlardagi xodimlarni majburiy rotatsiya qilish tartibini tasdiqlash;
- qarorlarni yakka tartibda qabul qilish bilan bog'liq vaziyatlarni qisqartirish, shuningdek, institut xodimlarining qabul qilingan qarorlar bo'yicha qo'shimcha hisobdorlik shakllarini joriy etish;
- institut xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish masalalariga doir ichki hujjatlarga rioya etishi ustidan nazoratni ta'minlash;
- institutning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlarining samarali amal qilishini ta'minlash.

Korruksiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:

- har bir chora institut xodimlari uning maqsadlari, pirovard natijasi va ma'lum bir korruksiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bilan aloqasini tushunishi uchun aniq va ravshan ifoda etilishi;
- har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyiliqi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlab olinishi zarur.

Institutning korruksiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga kiritilgan, aniqlangan korruksiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari institutning Korruksiyaga qarshi kurashish dasturlariga ham kiritiladi (mazkur Uslubiyatning 4-

ilovasi).

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini bajarmaganlik yoki tegishli ravishda bajarmaganlik uchun javobgarlik institut rahbari zimmasiga yuklatiladi.

Institutdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazorat bo'lim va mas'ul xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

Zarur bo'lganda, bo'lim va mas'ul xodimlar taklifiga ko'ra, institutning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar institut rahbari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Institutda korrupsiyaviy xavf- xatarlarni baholash Uslubiyatiga ***1-ilova***

Xavf-xatarlarni birlamchi baholash uchun tarkibiy bo‘lim nomi ko‘rsatilsin tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalar va tartib-taomillar TASNIFI

TASNIFI

1. Institut nomi

Bo‘lim

2. To‘ldirish uchun mas’ul

F.I.Sh

Lavozimi

Bog'lanish uchun (elektron pochta, telefon)

**Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keyingi bosqichda baholash uchun tashkilot
bo‘limlarini tasniflash bo‘yicha so‘rovnomalar**
SHAKLI

Quyidagi savollarga javob bersangiz (kerakligisini tagiga chizing):

1. Korrupsiyaviy xavf-xatar so‘nggi marta baholangandan so‘ng qonunchilikda qandaydir o‘zgarishlar sodir bo‘lganmi? Agar javob ijobjiy bo‘lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma’lumotlarni kriting.
A) Ha B) Yo‘q
2. Bo`limingiz (kaferdangiz) tomonidan bajariladigan tuzilma yoki funksiya faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarda korrupsiyaviy xavf-xatar so‘nggi marta baholangandan so‘ng qandaydir o‘zgarishlar sodir bo‘lganmi? Agar javob ijobjiy bo‘lsa, quyida keltirilgan shaklga tegishli ma’lumotlarni kriting.
A) Ha B) Yo‘q
3. Korrupsiyaviy xavf-xatar so‘nggi marta baholangandan buyon davlat boshqaruvi organlari faoliyati tuzilmasida bo`limingiz tomonidan bajarilayotgan funksiyaga ta’sir qilgan ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan qandaydir o‘zgarishlar yuz berdimi? Agar javobingiz ijobjiy bo‘lsa, quyida keltirilgan shaklga tegishli ma’lumotlarni kriting.
A) Ha B) Yo‘q
4. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni avvalgi baholashda ko‘zda tutilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildimi? Nima va qachon amalga oshirilganini ta’riflab bering. Agar amalga oshirilmagan yoki qisman amalga oshirilgan bo‘lsa, sababini yozing.
A) Ha B) Yo‘q V) Qisman amalga oshirilgan
5. Institut bo‘lim funksiyalarni bajarish va tartib-taomillarni amalga oshirishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa shart-sharoitlar mavjudmi? Agar javobingiz ijobjiy bo‘lsa, quyida keltirilgan jadvalga tegishli ma’lumotlarni kriting.
A) Ha B) Yo‘q

№	Institut nomi	Bo‘limlar	Funksiyalar o‘zgargani sabablari	O‘zgargan funksiya ta’rifi	Funksiya doirasida bajarilayotgan yangi/o‘zgargan tartib-taomillar	Tartib- taomillarni bajarish uchun mas’ul shaxslar (FISH, lavozimi)
1.1.1.						
1.1.2.						
...						

Institut _____

Bo‘lim _____

To‘ldirayotgan shaxsning lavozimi _____

To‘ldirayotgan shaxsning FISH _____

Imzo _____

To‘ldirish sanasi _____. _____.

Institutda korrupsiyaviy xavf-
xatarlarni baholash Uslubiyatiga
3-ilova

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi

№	Institut nomi	Funksiya nomi	Korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi (eng ko‘p moyil/eng kam moyil)	Funksiya doirasida amalga oshirilayot gan tartib-taomillar nomi	Tartib-taomilni amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslar (lavozimi, bo‘linmasi)	Ehtimoliy korrupsiy aviyligini qisqacha ta’rifi	O‘ziga xos korrupsiy aviyligini qisqacha ta’rifi	Mavjud nazorat tartib-taomillari / korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choratadbirlari	Nazorat tartib-tamoillarini tartiba soluvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar va ichki hujjatlar/korrupsiyaviyligini qisqacha ta’rifi	Nazorat tartib-taomillari/korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choratadbirlarini amalga oshirish uchun mas’ul shaxslar (lavozimi, bo‘limi)	Korrupsiyaviy xavf-xatar ehtimoli (yuqori / o‘rtalagi / past)	Korrupsiyaviy xavf-xatar oqibatlari (yuqori / o‘rtalagi / past)	Qoldiq xavf-xatar darajasi (yuqori / o‘rtalagi / past)	Taklif etilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha choratadbirlar	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha choratadbirlar bo‘yicha mas’ul shaxslar	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha choratadbirlar bo‘yicha mas’ul shaxslar

Institutda korrupsiyaviy xavf-
xatarlarni baholash Uslubiyatiga
4-ilova

**Institutda korrupsiyaga qarshi kurash
DASTURI**

Nº	Institut nomi	Korruptsiyaviy xavf-xatarni minimmallashtirish bo‘yicha choralar/tadbirlar/tartib- taomillar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas’ul ijrochilar (FISH, lavozimi)
1.1.					
1.2.					
...					
2.1.					
2.2.					
...					

Institutda korrupsiyaviy xavf-
xatarlarni baholash Uslubiyatiga
5-ilova

**Korrupsiya xavfiga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar
RO‘YXATI**

Nº	Institut nomi	Lavozim (funksiyalarini bajarish uchun mas’ul bo‘lgan shaxslarni ko‘rsatgan holda)	Tashkilot tuzilmasi nomi
1.1.			
...			
2.1.			
...			

Institutda korrupsiyaviy xavf-
xatarlarni baholash Uslubiyatiga
6-ilova

**6.1-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatar ehtimoli darajasini
aniqlash mezonlari**

Ehtimoli	Ta’rifi
Yuqori	<ul style="list-style-type: none"> — O‘ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori. — Nazorat tadbirlarining mavjud emasligi sezilarli darajada takomillashtirish talab etiladigan nazorat tadbirlarining mavjudligi. — ichki hujjatlarda tartib-taomillar (reglamentatsiya) jarayoni aniq tartibga solinmaganligi. — tartib-taomillar jarayoni avtomatlash-tirilmaganligi darajasi pastligi.
O‘rtacha	<ul style="list-style-type: none"> — O‘ziga xos xavf-xatar darajasi o‘rta. — tartib-taomil jarayoni tartibga solingan, qisman takomillashtirish talab etiladigan nazorat tadbirlari joriy etilgan. — tartib-taomil jarayoni tartibga solingan, qisman avtomatlashirilgan, biroq yetarli darajada shaffof emas. — o‘ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori va xavf-xatarni kamaytirish uchun tegishli nazorat tadbirlari ishlab chiqilgan, shu jumladan, instituttizimining ichki hujjatlari bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazorat ko‘zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi. — tartib-taomil jarayoni qisman yoki to‘liq avtomatlashirilgan.
Past	<ul style="list-style-type: none"> — O‘ziga xos xavf-xatar darajasi past. — O‘ziga xos xavf-xatar darajasi o‘rta hamda xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo‘lgan nazorat tadbirlari, jumladan ichki hujjatlar bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazoratni ko‘zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi. — Tartib-taomil jarayoni to‘liq avtomatlashirilgan.

6.2-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatarning ta’sir darajasini aniqlash mezonlari

Ta’sir	Obro‘ga putur yetkazish	Javobgarlik
Yuqori	- Xavf-xatar institutning ichki va xalqaro miqyosdagi obro‘siga sezilarli ravishda salbiy ta’sir qiladi (putur yetkazadi).	— Institut xodimlariga nisbatan jinoiy javobgarlik ta’sir choralarini ko‘rish.
O‘rtacha	— OAVda salbiy holatlarning yoritilishi; — Aholi va hamkorlardan salbiy fikrlar va shikoyatlar olish; — xavf-xatar institutning obro‘siga mahalliy darajada putur yetkazadi.	— Institut xodimlariga nisbatan ma’muriy javobgarlik ta’sir choralarini ko‘rish.
Past	— Aholi, mahalliy OAVlardan vaziyatga izoh berishni so‘rab alohida so‘rovlar tushishi mumkin.	— Institut xodimlariga nisbatan ma’muriy javobgarlik ta’sir choralarini ko‘rish mumkin.

6.1-rasm. Xavf-xatarning ahamiyatlilik matritsasidagi joylashuvi (qoldiq xavf-xatari darajasini aniqlash)

